

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

**“SANOAT ISHLAB CHIQARISHINI TASHKIL ETISH”
KAFEDRASI**

“INNOVATSION IQTISODIYOT”

FANIDAN

MA'RUZALAR KURSI

Andijon 2019

Taqrizchilar:

1. **E. Qo‘ldoshev** - AndMI «Axborot texnologiyalari» kafedrasi dotsenti, i.f.n.
2. **G.Zufarova** - TADU Andijon filiali «Agrobiznes va investitsion faoliyat» kafedrasi dotsenti, i.f.n.

«Innovatsion iqtisodiyot» fani birinchi navbatda iqtisodiyotda innovatsion jarayonlarni samarali yo’lga qo’yish asosida uning raqobatbardoshligini oshirish masalalarini o’rganishni asosiy maqsad qilib oladi. Innovatsion faoliyatga ta’sir etivchi omillar, davlatning roli, innovatsion jarayonlarni moliyalashtirish, rag’batlantirish, sug’urtalash kabi qator masalalarni o’rganishni, izoxlashni mo’jallangan, bunda turli xil omillarni oddiy tarzda amal qilish haqidagina emas, balki innovatsion jarayonlarning mohiyatini anglash, boshqarish, ularni iqtisodiy axvolini yaxshilash yo’llarini tanlash, baholash va tahlil qilish, eng muhim iqtisodiy jarayonlarni prog’nozlashtirish va modellashtirish haqida ham boradi.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi davlat ta'lif standartlari talablariga ko'ra "Iqtisodiyot" (real sektor) ta'lif yo'nalishi o'quv rejalariga "Innovatsion iqtisodiyot" fani kiritilgan, chunki ushu soxa mutaxassisini innovatsion jarayonlarni tashkil etish, yangi g'oyalar va ixtirolarni ro'yobga chiqarish malakasiga ega bo'lishi lozim.

Innovatsion jarayon innovatsion qzgarishlarni tayyorlash va amalga oshirishdan iborat bqladi va yagona, majmuaviy butunlikni tashkil qiluvchi qzaro bog'langan bosqichlardan vujudga keladi. Bu jarayon natijasida amalga oshirilgan, foydalilanigan qzgarish - innovatsiya paydo bqladi. Innovatsion jarayonni amalga oshirish uchun diffuziya (yangi sharoitlar yoki qllash joylarida bir marta qzlashtirib yoki foydalananib bqlingan innvoatsiyani vaqtda tarqalishi) katta ahamiyatga ega. Innovatsion jarayon davriy xarakterga ega. Bu jihatlarni hisobga olish iqtisodiyotni tashkil qilish va iqtisodiy taxlil qilishning egiluvchan tizimlarini yaratishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2017 – 2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar Strategiyasining milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish yo'nalishining asosiy vazifalaridan biri korxonalarni modernizatsiyalash, texnik va texnologik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadalroq o'tkazish, zamonaviy ixcham texnologiyalarni keng tadbiq etishdan iboratdir.¹

O'zbekistonda ilg'or texnologiyalar bilan jihozlangan va bizning xom ashyo resurslarimizni chuqur qayta ishlashni, eksport salohiyatini kqpaytirishni ta'minlovchi, yangi ish joylarini tashkil qiluvchi yangi yuqori texnologik ishlab chiqarishlarni yaratishga qaratilgan investitsion loyihalarga ustivorlik beriladi.

Ushbu masala bqtyicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maxsus Qarori chiqqan, unda ilmiy – amaliy tadqiqotlar va innovatsion ishlamalarni rivojlantirish va ularni ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash jarayonlariga tadbiq etish, fan va ishlab chiqarishning yaqinroq aloqasini ta'minlashni rag'batlantirish bqtyicha haqiqiy mexanizmlarni yaratish maqsadida va ilmiy – tadqiqot tashkilotlari va haqiqiy iqtisodiyot sohalari korxonalari qrtasida yaqin kooperatsion aloqalarni qrnatishda Respublika innovatsion g'oyalar va loyihibar yarmarkasining qrnini hisobga olgan holda tadbirlarning bir qator majmualari tasdiqlangan.

Zamonaviy innovatsion jarayonlar murakkab bqlib, ularning rivojlanishi qonuniyatlarini tahlil qilinishi lozim. Buning uchun yangilik kiritish har xil tashkiliy – iqtisodiy jihatlari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar innovatsion jarayon iqtisodchilari zarur.

Innovatsion jarayon iqtisodchilari ilmiy – texnik va iqtisodiy – psixologik salohiyatga ega bqlishlari kerak, ularga muxandislik – iqtisodiy bilimlar zarurdir.

Innovatsion jarayon iqtisodchilari innovatsion jarayonni ilgari surishga yordam beradilar, ehtimol bqlgan kataklizmlar (jamiyat va tabiatdagi keskin qzgarishlar) ni va ularni bartaraf qilish yqlarini prognoz qilishga harakat qiladilar.

Bozor iqtisodiyoti uchun mahsulotlarni yangilashdan manfaatdor bqlgan mustaqil firmalarning raqobati, bir birlari bilan raqobatlashuvchi yangilik kiritishlar bozoriga xosdir. Shuning uchun yangilik kiritishlarning bozorli tanlovi mavjud, unda innovatsion jarayon iqtisodchilari ishtiroy etadilar.

Innovatsion jarayon iqtisodchilari ijodiy jamoalarni tashkil qilish, yangiliklarni qidirib topish va tarqatish, ilmiy tadqiqotlar va ishlamalarga buyurtmalar portfelini shakllantirish vazifalarini bajara turib, har xil tashkiliy tuzilmalar (fanlar akademiyasi, OQYU, ilmiy jamiyatlar, tadqiqot tashkilotlari, konstrukturlik byurolari va boshqalar) da harakat qilishlari mumkin. Ular ilmiy jamoalarni boshqaradilar, ilmiy tadqiqotlarni muvofiqlashtirish bilan

1 O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2017 – 2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar Strategiyasi ,T, "O'zbekiston", 2009.

shug'ullanadilar va an'anaviy menejer va tadqiqotchi olim sifatlariga ega bqlishlari, hamda yangilik kiritishlarning samaradorligini baholashga qodir malakali mutaxassislar bqlishlari kerak.

O'zbekiston dunyoning rivojlangan davlatlari qatoriga qqshilish, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni, mamlakatni modernizatsiya qilishni davom ettirish qamda chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va shu asosda qz fuqarolari uchun munosib turmush sharoitini yaratishni qzining istiqboldagi muhim vazifalari deb biladi.

O'zbekiston iqtisodiyotini isloh qilishning yangi bosqichi. Innovatsion iqtisodiyot bqtyicha ilmiy jamoalar, tadqiqotlar va ishlamalarni iqtisodiy taxlil qilish usuliga ega va yangilik kiritishlar bozorida ishlashga qodir mutaxassislarni tayyorlashni taqozo qiladi.

1-Mavzu. Fanning predmeti, maqsadi vazifalari

- 1.1. Innovatsiya iqtisodiyoti fanini o'rganish zarurati.
- 1.2. Innovatsiya iqtisodiyoti fanining predmeti va maqsadi.
- 1.3. Fanning vazifalari va mohiyati.
- 1.4. Innovatsiya iqtisodiyoti fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi.
- 1.5. Innovatsiyaon g'oyalar va intellektual salohiyat.
- 1.6. Innovatsion boshqarishning mexanizmlari.

1.1. Innovatsiya iqtisodiyoti fanini o'rganish zarurati.

Jamiyat va iqtisodiyot taraqqiyotining rivojlanishi hamda fan va texnologiyalarni yutuqlarini real xayotga joriy etilishi bilan bog'liqdir. Innovatsiyalarning yaratilishi va amal qilishini ta'minlanishi bozor iqtisodiyoti sharoitida bozor qonunlari asosida rivojlanishini talab etadi. Bu esa hozirgi kundagi iqtisodiy fanlar hamda davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan bo'lib kelmoqda. Talabalarda innovatsiya iqtisodiyoti, innovatsion infratuzilmalar va tizimli-iqtisodiy munosabatlar to'g'risida amaliy tajribalarni shakllantirish kursning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. "Innovatsiya iqtisodiyoti" kursi orqali olingan bilimlar bo'lg'usi iqtisodchi-mutaxassislarga iqtisodiyotdagi nazariy va amaliy masalalarni to'g'ri hal etish bilan barga iqtisodiyotdagi innovatsiyalarning o'rni va ularni tashkil etish bo'yicha ma'lum bir ko'nikmalarni hosil etishda hamda mazmun-mohiyatini o'rganishda yordam beradi.

1.2. Innovatsiya iqtisodiyoti fanining predmeti va maqsadi.

Fanni o'qitishdan maqsad - innovatsiya tushunchasi va turlari, iqtisodiy faoliyat va ishlab chiqarish, iqtisodiy mexanizm va tizimlar samaradorligini oshirish muammolari, respublika iqtisodiyoti infratuzilmasini chuqurroq o'rganib kelgusida mustaqil mehnat faoliyatida amaliy professional bilimni shakllantirishga yo'naltirishdir.

Innovatsion infratuzilmani ishlab chiqarish sohasi uchun bevosita sharoit yaratib beradigan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotda bozor mexanizmining rivojlanib borishi bilan alohida bozorlarning ehtiyojlarini qondirish bo'yicha faoliyatning maxsus turini yaratish zaruriyati vujudga keladi.

Iqtisodiy mexanizm bir necha unsurlarning yaxlitligidan tashkil topadi. Unga iqtisodiy stimullar (rag'bat beruvchi kuchlar), ishlab chiqarish, ayirboshlash va iste'molni tashkil etish, iqtisodiy faoliyatning ixtisoslashuvi, iqtisodiy faoliyat kooperatsiyasi va xo'jalik aloqalarini o'rnatish usullari kiradi. Iqtisodiy mexanizmning etakchi bo'g'ini iqtisodiy stimullar hisoblanadi.

1.3. Fanning vazifalari va mohiyati.

Innovatsiya iqtisodiyoti fanining vazifasi – bozor ishtirokchilari va unda asosiy o‘rinni egallovchi infratuzilmalar rivojlanishi, qonuniyatlari va ularning harakatlari modellarini optimallashtirishdir. Firma yoki korxonaning marketing izlanishlarida yoki uning iqtisodiy strategiyasini belgilashda va amalga oshirishda turli modellardan foydalanish iste’molchilarning o‘zgarishlarga bo‘lgan munosabatlarini bashorat qilishga yoki raqobatchilarning aks ta’sirlari, xatti-harakatlarini ma’lum ehtimollik darajasi bilan aniqlashga imkon beradi.

Innovatsiya iqtisodiyoti fanini mukammal o‘rganishning afzalligi yana shu bilan izohlanadiki, to‘g‘ri qaror qabul qilishda insonlar doimo kerakli va ishongchli nazariy bilimga va ma’lumotga ega bo‘lishizarur. Agar ular o‘z bilimlariga ega bo‘lmasa tajriba va xatolaridan kelib chiqqan, holdao‘ziga qimmatga tushgan usulni qo‘llashi mumkin yoki boshqalarning tajribasi, xatolarini o‘rganishi mumkin, lekin, innovatsiya iqtisodiyotidan olgan bilimlariga murojaat qilsa ularning ishi ancha engillashadi, belgilagan strategiyasi va rejasি aniq bo‘ladi.

1.4. Innovatsiya iqtisodiyoti fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

Innovatsiya iqtisodiyoti makroiqtisodiyot, mikroiqtisodiyot, Innovatsion iqtisodiyot, bozor iqtisodiyoti asoslari, bozor infratuzilmasi nazariyasi, makro va mikroiqtisodiyot, chet mamlakatlar bozori nazariyasi kabi fanlar bilan o‘zaro bog‘langan.

Ushbu fan iqtisodiy o‘sish masalalariga bevosita bog‘liqdir. Hududiy infratuzilma va ularning tarkibiy tuzilishlari, bozor iqtisodiyoti sharoitida infratuzilma tizimining ahamiyati, hududiy iqtisodiyot va uning rivojlanishiga infratuzilma tizimining ta’siri bo‘yicha amaliy va nazariy tavsiyalar beradi.

1.5. Innovatsiyaon g‘oyalari va intellektual salohiyat.

Joriy yilning 1-3 mart kunlari poytaxtimizdagi "O‘zekspomarkaz" ko‘rgazmalar binosida III Innovatsion g‘oyalari, texnologiyalar va loyihibar Respublika yarmarkasi bo‘lib o‘tdi. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo‘mitasi hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar va savdo vazirligi hamkorligida tashkil etilgan mazkur ko‘rgazmada O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, Oliy va o‘rtta maxsus ta’lim, Sog‘liqni saqlash, Qishloq va suv xo‘jaligi vazirliklari hamda boshqa idoralar tasarrufidagi 120 dan ortiq ilmiy-tadqiqot, oliy ta’lim, tajriba-konstrukturlik tashkilotlari, kichik innovatsiya korxonalari, shuningdek, ixtirochilar o‘zlarining 600 dan ortiq texnologiyalari, ishlanmalari hamda g‘oyalari bilan ishtirok etdilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yildagi PQ-916-sonli "Innovatsion loyihibar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi Qaroriga muvofiq o‘tkazilayotgan mazkur yarmarkaning bosh maqsadi – ilmiy hajmdor, yuqori texnologik ishlab chiqarishning o‘sishi, shu jumladan, kichik innovatsion tadbirdorlikning barqaror rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, respublikaning ilmiy salohiyatidan mamlakatning iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasini rivojlantirishning dolzarb muammolarini hal qilishda samarali foydalanish, korxonalarining investitsiya va innovatsiya faolligini rag‘batlantirish, innovatsiya faoliyatini kengaytirish uchun investitsiyalarni jalb qilishga ko‘maklashishdan iborat.

Ta’kidlash joizki, o‘tgan 2015 va 2016 yillar mobaynida yarmarkalar doirasida jami 1000 dan ortiq shartnomalar imzolangan bo‘lib, bugungi kunda ulardan 320 tasi muvaffaqiyatli yakunlangan, 120 tasi bo‘yicha esa faol ishlar olib borilmoqda. Tahlillarning ko‘rsatishicha, shartnomalar bajarilishi natijasida 16 nomdagi mahalliy dorivor vositalarning ishlab chiqarilishi tashkil etilgan, 14 ta korxonada yangi turdagи (dekstrin, kraxmal, gaz analizatorlari, gelioqurilmalar, elektrotexnika vositalari) ilmiy hajmdor mahsulotlarni ishlab chiqarish boshlab yuborilgan, 14 ta korxonada yangi axborot texnologiyalari, 24 ta korxonada yangi texnologiyalar joriy etilgan va mavjudlari takomillashtirilgan, 35 dan ortiq tashkilotlarga ilmiy xizmatlar ko‘rsatilgan. Amaldagi shartnomalarning moliyalashtirilishi bo‘yicha tarmoq grafiklari tuzilgan bo‘lib, ularning ijrosi har chorakda monitoring qilib boriladi.

Seminar doirasida sanoat, qishloq xo‘jaligi, farmatsevtika, sog‘liqni saqlash, axborot texnologiyalari, fan va ta’lim yo‘nalishlarini o‘z ichiga olgan ilmiy-amaliy anjumanlar o‘tkazildi. Unda muvaffaqiyatli ishlar tahlil qilinib, mavjud muammolar muhokamasiga asosiy e’tibor qaratildi. SHu jumladan, yosh olimlar va talabalarning 63 ta ishlanmalari hamda "Kelajak ovozi" Respublika tanlovi g‘oliblarining 18 ta ishlanmalari ilk bor yarmarka doirasidan o‘rin oldi.

Jumladan, o‘tkazilgan innovatsiya yarmarkasi ishlanmalar mualliflari va investorlarning bevosita aloqalari mustahkamlanishiga va ilm-fan taraqqiyoti rivojiga munosib hissa qo‘sib, intellektual mulk bozori sifatida faoliyat ko‘rsatadigan maydon bo‘lib xizmat qiladi.

1.6. Innovatsion boshqarishning mexanizmlari.

Korxona iqtisodiyoti infratuzilmasini samarali boshqarish natijasida O‘zbekistonda aholining moddiy, ma’naviy, ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish darajasini ifodalaydigan «turmush darajasi» yaxshilanib boradi. Bunday tavsif ko‘proq turmush darajasi statistikasini tavsiflaydi. SHu bilan birga turmush darajasi ko‘plab omillar yig‘indisi ta’sirida bo‘lgan o‘zgaruvchan jarayondir. Bir tomonidan turmush darajasi muntazam o‘zgarib turadigan turli ne’matlarga ehtiyojlarning tarkibi va darajasi bilan, boshqa tomonidan, ehtiyojni qondirish imkoniyatlari, tovarlar va xizmatlar bozoridagi holat, aholi daromadlari, ish haqi, mulkdan olinadigan daromad bilan belgilanadi.

Ishlab chiqarish innovatsion infratuzilmasi tarkiban moddiy ne’matlar ishlab chiqaruvchi tarmoq va korxonalariga ishlab chiqarilgan mahsulotlarni iste’molchiga etkazishni tayyorlash, saqlash, o‘rash, qadoqlash yoki joylashtirish, tovar joylanadigan yoki o‘raladigan idishlar bilan ta’minlash, tashish, ta’mirlash hamda sotish kabi xizmatlar ko‘rsatuvchi, ularning to‘xtovsiz va samarali faoliyat yuritishni ta’minlovchi tashkilot va korxonalar majmuuni tashkil etadi.

2-Mavzu. Innovatsiyalar va uni jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini

- 2.1 Innovatsiyalar to‘g‘risida tushunchasi.
- 2.2 Jamiyat taraqqiyoti va innovatsion boshqaruv.
- 2.3 Innovatsiyalarni tadbirkorlik va biznesni rivojlantirishdagi o‘rni.
- 2.4 Investitsiyalar va innovatsiyalarni boshqarish.
- 2.4 Innovatsion infratuzilmaning nazariy-uslubiy asoslari

2.1 Innovatsiyalar to‘g‘risida tushunchasi.

Hozirgi vaqtda «Innovatsiya tushunchasi» juda keng qo‘llanilmoqda. Innovatsiya so‘zi inglizcha so‘z bo‘lib — «innovation» yangilik kiritish degan ma’noni bildiradi, ya’ni tizim ichki tuzilishini o‘zgartirish, deb ta’riflanadi. Innovatsiya amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo‘lib, ijtimoiy-madaniy ob’ekt sifatlarini yaxshilashga yo‘naltirilgan ijtimoiy sub’ektlarning harakat tizimidir. Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug‘ilib, ta’lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo‘ladi. SHuningdek, umuman ta’lim tizimi rivojiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Innovatsiya — ma’lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni echish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo‘llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishiga olib kelishi ma’lum bo‘lgan oxirgi natijadir.

Innovatsiya loyihalari – bunday loyixalarning asosiy maqsadi yangi texnologiyalar, nouxau va korxonalarining rivojlanishini ta’minlab beruvchi boshqa yangiliklarni ishlab chiqish va qo‘llashdan iborat.

2.2 Jamiyat taraqqiyoti va innovatsion boshqaruv.

Mamlakatimizni rivjlantirishning 2017-2021 yillarga mo’ljallangan Harakatlar Strategiyasida qayd etilganidek, joriy yildagi asosiy vazifalardan biri — izchil yuqori o‘sish

sur'atlarini, makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash va iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirish eng muhim ustuvor yo'nalishga aylanishi darkor. Ushbu vazifani amalga oshirishda innovatsion faoliyatning o'ziga xos o'rni borligini alohida ta'kidlash mumkin.

Zero, mutaxassislarning xalqaro miqyosdagi tahlillarga tayanilgan holda ta'kidlashlaricha, mamlakatlarning inqirozdan chiqish vazifalarini hal etish va iqtisodiy rivojlanishning dinamik barqarorligini ta'minlashda birinchi navbatda innovatsiya va innovatsion faoliyat asosiy rol o'ynaydi. CHunki, innovatsiya faoliyatigina ishlab chiqarish bazasini texnik va texnologik jihatdan to'xtovsiz yangilash, zamonaviy texnologiyali korxonalarini tashkil etish, tabiiy resurslardan unumli foydalanish, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni o'zlashtirish, jahon tovar va xizmatlar bozoriga samarali kirib borish, umuman, iqtisodiyotni yuksaltirishga erishish omili hisoblanadi. SHu boisdan mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq, taraqqiyotning garovi hisoblangan innovatsion faoliyatni shakllantirish va rivojlantirishga muhim e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, innovatsion faoliyat uchun zarur huquqiy asoslarni hamda shart-sharoitlarni yaratish, davlat tashkilotlari va ishlab chiqaruvchilar bilan novator olimlar o'rtasida samarador hamkorlikni ta'minlash choralari ko'rilmoxda.

2.3 Innovatsiyalarni tadbirkorlik va biznesni rivojlantirishdagi o'rni.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimizda o'rta sinfi shakllantirishda mustahkam zamin bo'lib xizmat qilmoqda. Aynan mazkur sektorni rivojlantirish hisobidan mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy, sotsial va iqtisodiy barqarorlikdan manfaatdor, uni taraqqiyot va demokratik tub o'zgarishlar sari faol harakatlantiruvchi kuch hisoblangan ijtimoiy qatlam shikllanmoqda.

Tadbirkorlikni rivojlantirish, ishbilarmonlikni huquqiy himoya qilish masalasi mamlakatimizda izchil amalga oshirilayotgan islohotlarning eng asosiy yo'nalishlaridan biridir. Keyingi yillarda ushbu soha jadal sur'atlar bilan ravnaq topib, aholi bandligi va turmush farovonligini ta'minlashda etakchi kuchga aylandi.

Keyingi yillarda zamonaviy bozor iqtisodiyoti asosida rivojlanayotgan bir qator mamlakatlarda yirik korxonalar o'zlarining ichki bo'linmalari bajargan avvalgi ko'p funksiyalaridan voz kechish va bu funksiyalarni kichik korxonalarga berish jarayoni kuzatilmoqda. Aynan shu sabablarga ko'ra yirik sanoat korxonalarini soni qisqarib, kichik korxonalar soni o'sib bormoqda. Bu jarayon bozor iqtisodiyotining dinamik, harakatchan, yangiliklarga hozirjavob, bozordagi talab va uning o'zgarishiga tez moslashuvchan bo'lishini ta'minlaydi. SHunga muvofiq, O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar korxonalarini bilan riqobatbardoshlik darajasi ko'tarilishiga imkon beruvchi eng muhim omillardan biri kichik korxonalarning bugun bir tarmog'ini vujudga keltirishga imkon beruvchi qulay shart-sharoitlarni yaratishdirki, bunday korxonalar yig'indisi raqobatli bozor muhitini yaratishga imkon bersin.

Demak, respublikamiz mintaqalarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi korxonalarga lohida e'tibor qaratish, bu jarayon yangi innovatsiyalar, tashabbuskorlikni talab etishini, shular asosidagina iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash mumkin. SHunday ekan, mintaqalardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona rahbarlari fan va texnika sohasidagi eng so'nggi innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishga alohida e'tibor qaratishlari lozim

2.4 Investitsiyalar va innovatsiyalarni boshqarish.

YAratilgan qulay investitsiyaviy muhit, jumladan, banklarning kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushiga qarab tabaqa lashtirilgan foyda solig'i stavkalarining joriy etilganligi tijorat banklarining investitsiyaviy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. Banklarning investitsiya kreditlari ustuvor ravishda "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar Strategiyasi" da belgilangan vazifalar, "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oya va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" Davlat dasturi hamda tarmoqlarni modernizatsiya qilish, mahalliyashtirish va

hududlarni rivojlantirish davlat dasturlariga kiritilgan loyihalarni qo'llab-quvvatlashga, kichik biznes va xususiy tadbikorlik sub'ektlari tomonidan minitexnologiyalarni sotib olishga yo'naltirilmoqda.

Loyihaning alohida bobi muhim ahamiyatga ega bo'lgan innovatsiyalar va innovatsion faoliyatning moliyalashtirilishi jarayoniga bag'ishlangan. CHunonchi, uning bir qator moddalari orqali innovatsiyalar va innovatsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari Davlat byudjeti mablag'lari, innovatsion faoliyat sub'ektlarining o'z mablag'i, xalqaro grantlar va tijorat banklari hamda xalqaro moliyaviy institatlarning imtiyozi-maqсадli kreditlari, shuningdek, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar bo'lishi mumkinligi ko'rsatib o'tilmoqda. Qayd etilayotganiga ko'ra, tijorat banklari, investitsiya, lizing kompaniyalari, shu jumladan, xorijiy kompaniya va fondlari, innovatsion faoliyat sub'ektlarining modernizatsiyalash va yangi texnologiyalar fondlari, vechur fondlari va boshqa investorlar ham qonunchilikka muvofiq innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda ishtirok etishi mumkin.

Bundan tashqari, respublikamizning xom ashyo zaxiralariga boyligi, rivojlangan infratuzilma va yuqori intellektual salohiyatning mavjudligi, eng muhimi, qulay geografik joylashuvi xorijlik hamkorlar bilan ishslash ko'lamini kengaytirishga xizmat qilayapti.

SHuningdek, mamlakatimizda investitsion jozibadorlikni oshirish bilan bog'liq qabul qilingan qonunlar, xuquqiy-me'yoriy hujjatlar, eng muhimi, mintaqada hukm surayotgan tinchlik-totuvlik, global moliyaviy-iqtisodiy inqirozning salbiy oqibatlarini oldini olish bo'yicha amalga oshirilib kelinayotgan chora-tadbirlar hamda xalqaro iqtisodiy munosabatlarning yangi bosqichga ko'tarilib borayotganligini ham e'tirof etish mumkin.

Iqtisodiyotning real sektoriga investitsiyalarni amalga oshirish orqali quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy samaralarga erishiladi:

- ❖ ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish miqdor va sifat jihatdan o'smoqda;
- ❖ ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish miqdorining o'sishi davlat byudjetiga tushayotgan soliq tushumlarining ko'payishiga olib keladi;
- ❖ ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish samaradorligining oshishi ish haqining ortishiga va aholi farovonligining yuksalishiga xizmat qiladi;
- ❖ jahon talablariga javob beradigan raqobatbardosh ishlab chiqarish orqali mamlakatning eksport salohiyati o'sadi.

2.5 Innovatsion infratuzilmaning nazariy-uslubiy asoslari

Ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotda hududiy infratuzilma sohasi tarkibiga kiruvchi tuzilmalardan foydalanish amalda ancha ilgari boshlanganligiga qaramay, unga mukammal tizimga ega bo'lgan mustaqil soha sifatida e'tibor qaratish nisbatan kech ro'y berdi. Zero, "infratuzilma" atamasi fanga kiritilishining aniq sanasi ma'lum bo'lmay, ko'pchilik tadqiqotlarda ushbu tushuncha XX asr 40 – yillarining oxirida paydo bo'lgan deyilsa, ba'zilarida esa amerikalik iqtisodchi P.Rozenshteyn-Rodan tomonidan 1955 yilda ilmiy atama sifatida qo'llanilgani qayd etilgan.² Ma'lumotlarga ko'ra, XX asr boshlarida "infratuzilma" atamasi iqtisodiy tahlilda qurolli kuchlarning hayotga layoqatliliginini ta'minlovchi ob'ekt va inshootlarni ifodalash uchun qo'llanilgan. 40 yillarda G'arbda infratuzilma tushunchasi orqali moddiy ishlab chiqarishning etarli darajada amal qilishi uchun xizmat qiluvchi tarmoqlar majmui tushunila boshlandi.

Infratuzilma – bu har qanday yaxlit iqtisodiy tizim va tuzilmalarning mavjud bo'lish sharti hisoblangan tarkibiy qismidir.

"Infratuzilma" atamasi lotincha "infra" – quyi, osti, "structura" – tuzilma, joylashuv so'zlaridan paydo bo'lgan. "Infratuzilma" atamasining keng qo'llanilishiga qaramay, bu tushunchani turlicha talqin qilish hollari uchrab turadi. Bir guruh olimlar infratuzilmaning

2 Стаханов В.И.Экономика инфраструктуры общественного производства. Учеб.пос.Ростов н/Д,1999,8-б.

funksiyasini ishlab chiqarish va aholiga xizmat ko'rsatishda deb qarab, uni xizmat ko'rsatishning yaxlit tizimi sifatida belgilaydilar.

SHuningdek, ba'zilar "infratuzilmani "insonning hayoti va ijtimoiy ishlab chiqarishda xizmatlar, ishlab chiqarishdagi o'ziga xos mehnat jarayonlari majmuasi"³, "moddiy ishlab chiqarishga ishlab chiqarish xizmatlari ko'rsatuvchi, xalq xo'jaligida iqtisodiy aylanishni ta'minlovchi, aholi uchun xizmatlar va ma'naviy ne'matlar ishlab chiqaruvchi, atrof – muhitni takror ishlab chiqarish va muhofaza qilish uchun mavjud halq xo'jaligining tarmoqlari va tarmoq ichi sohalari yig'indisi sifatida ta'riflasalar"⁴, ba'zilari infratuzilmaning ahamiyatini "ishlab chiqarishning umumiy shart-sharoitlarini yaratish", "asosiy ishlab chiqarish faoliyatini ta'minlash" orqali belgilab, u orqali faqat ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish tizimini tushunadilar.

Infratuzilma – takror ishlab chiqarish shartlarini ta'minlovchi ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlari kompleksi- yo'llar, aloqa, transport, maorif, sog'liqni saqlash. Asosiy ishlab chiqarish infratuzilmasi energo-ta'minot, transport va aloqa tarmoqlaridir. Infratuzilma jamiyat ishlab chiqarish kuchlarining bo'linmas qismi hisoblanadi.

Ish haqi miqdori, turmush darajasi ham ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari samaradorligining ko'lami, ilmiy-ma'rifiy saviyasi va tarkibi, milliy xususiyatlar infratuzilma ko'rsatkichlari hisoblanadi. SHu bilan birga infratuzilma ko'rsatkichlari BMT tavsiyasiga ko'ra aholi turmush darajasini har tomonlama to'liq xarakterlash uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanish zarur. Ushbu ko'rsatkichlar 12 guruhga ajratilgan:

1. Mamlakatdagi demografik sharoit: tug'ilish, vafot etish va boshqalar.
2. Turmush sharoitida sanitariya-gigiena holati.
3. Oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli.
4. Uy-joy bilan ta'minlanish darajasi.
5. Fan va madaniyat.
6. Mehnat sharoiti va bandlik.
7. Aholi daromadlari va xarajatlari.
8. Turmush qiymati va iste'mol baholari
9. Transport vositalarining mavjudligi.
10. Dam olishni tashkil etish.
11. Ijtimoiy ta'minot.
12. Inson huquqlari.

Joriy yilning 1-3 mart kunlari poytaxtimizdagi "O'zekspomarkaz" ko'rgazmalar binosida III Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihibar Respublika yarmarkasi bo'lib o'tdi. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar va savdo vazirligi hamkorligida tashkil etilgan mazkur ko'rgazmada O'zbekiston Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim, Sog'liqni saqlash, Qishloq va suv xo'jaligi vazirliklari hamda boshqa idoralar tasarrufidagi 120 dan ortiq ilmiy-tadqiqot, oliy ta'lim, tajriba-konstrukturlik tashkilotlari, kichik innovatsiya korxonalari, shuningdek, ixtirochilar o'zlarining 600 dan ortiq texnologiyalari, ishlanmalari hamda g'oyalari bilan ishtirot etdilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yildagi PQ-916-soni "Innovatsion loyihibar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq o'tkazilayotgan mazkur yarmarkaning bosh maqsadi – ilmiy hajmdor, yuqori texnologik ishlab chiqarishning o'sishi, shu jumladan, kichik innovatsion tadbirkorlikning barqaror rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, respublikaning ilmiy salohiyatidan mamlakatning iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasini rivojlantirishning dolzarb muammolarini hal qilishda samarali foydalanish, korxonalarining investitsiya va innovatsiya faolligini rag'batlantirish, innovatsiya faoliyatini kengaytirish uchun investitsiyalarni jalb qilishga ko'maklashishdan iborat.

³ Стаханов В.И. Экономика инфраструктуры общественного производства. Учеб.пос.Ростов н\Д,2001, 6-б.

⁴Шарипов А.Ю. Управление отраслями инфраструктуры в системе региона.М.,2007, 5 с.

Ta'kidlash joizki, o'tgan 2008 va 2009 yillar mobaynida yarmarkalar doirasida jami 740 ta shartnomalar imzolangan bo'lib, bugungi kunda ulardan 182 tasi muvaffaqiyathi yakunlangan, 120 tasi bo'yicha esa faol ishlar olib borilmoqda. Tahlillarning ko'rsatishicha, shartnomalar bajarilishi natijasida 16 nomdagi mahalliy dorivor vositalarning ishlab chiqarilishi tashkil etilgan, 14 ta korxonada yangi turdag'i (dekstrin, kraxmal, gaz analizatorlari, gelioqurilmalar, elektrotexnika vositalari) ilmiy hajmdor mahsulotlarni ishlab chiqarish boshlab yuborilgan, 14 ta korxonada yangi axborot texnologiyalari, 24 ta korxonada yangi texnologiyalar joriy etilgan va mavjudlari takomillashtirilgan, 35 dan ortiq tashkilotlarga ilmiy xizmatlar ko'rsatilgan. Amaldagi shartnomalarning moliyalashtirilishi bo'yicha tarmoq grafiklari tuzilgan bo'lib, ularning ijrosi har chorakda monitoring qilib boriladi.

Seminar doirasida sanoat, qishloq xo'jaligi, farmatsevtika, sog'liqni saqlash, axborot texnologiyalari, fan va ta'lim yo'nalişlarini o'z ichiga olgan ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazildi. Unda muvaffaqiyatlari ishlar tahlil qilinib, mavjud muammolar muhokamasiga asosiy e'tibor qaratildi. SHu jumladan, yosh olimlar va talabalarning 63 ta ishlanmalari hamda "Kelajak ovozi" Respublika tanlovi g'oliblarining 18 ta ishlanmalari ilk bor yarmarka doirasidan o'rinn oldi.

Jumladan, o'tkazilgan innovatsiya yarmarkasi ishlanmalar mualliflari va investorlarning bevosita aloqalari mustahkamlanishiga va ilm-fan taraqqiyoti rivojiga munosib hissa qo'shib, intellektual mulk bozori sifatida faoliyat ko'rsatadigan maydon bo'lib xizmat qiladi.

Korxona iqtisodiyoti infratuzilmasini samarali boshqarish natijasida O'zbekistonda aholining moddiy, ma'naviy, ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish darajasini ifodalarydig'an «turmush darajasi» yaxshilanib boradi. Bunday tavsif ko'proq turmush darajasi statistikasini tavsiflaydi. SHu bilan birga turmush darajasi ko'plab omillar yig'indisi ta'sirida bo'lgan o'zgaruvchan jarayondir. Bir tomonidan turmush darajasi muntazam o'zgarib turadigan turli ne'matlarga ehtiyojlarning tarkibi va darajasi bilan, boshqa tomonidan, ehtiyojni qondirish imkoniyatlari, tovarlar va xizmatlar bozoridagi holat, aholi daromadlari, ish haqi, mulkdan olinadigan daromad bilan belgilanadi.

Ishlab chiqarish innovatsion infratuzilmasi tarkiban moddiy ne'matlar ishlab chiqaruvchi tarmoq va korxonalarga ishlab chiqarilgan mahsulotlarni iste'molchiga etkazishni tayyorlash, saqlash, o'rash, qadoqlash yoki joylashtirish, tovar joylanadigan yoki o'raladigan idishlar bilan ta'minlash, tashish, ta'mirlash hamda sotish kabi xizmatlar ko'rsatuvchi, ularning to'xtovsiz va samarali faoliyat yuritishni ta'minlovchi tashkilot va korxonalar majmuuni tashkil etadi.

3-Mavzu. Innovatsion rivojlanish konsepsiysi

- 3.1 Innovatsion faoliyatni asosiy tushunchalari.
- 3.2 Texnologik bosqichlarning evolyusiyasi.
- 3.3 Innovatsiyalarning rivojlanish modellari.
- 3.4 YAngilikni yaratilishi va uning xarakteristikasi.

3.1 Innovatsion faoliyatni asosiy tushunchalari.

Innovatsiya deb yangi ko'rinishda mahsulot (tovar, ish, xizmat) yaratilishini yoki takomillashtirishini, ishlab chiqarish jarayonining yangi ko'rinishi joriy qilinishini yoki ushbu jarayonning takomillashtirishini, biznesni yuritishda yangi marketing yoki tashkiliy usullarning joriy qilinishini, ish o'rinnari tashkil etishni yoki tashqi aloqalar o'rnatalishini o'zida mujassamlashtirgan innovatsiyaviy faoliyatning yakuniy natijasi tushuniladi.

Hisobot shaklida **texnologik innovatsiyalar** deganda yuridik shaxsning texnologik yangi mahsulotlar va jarayonlarni, shuningdek mahsulotlar va jarayonlarda sezilarli darajada takomillashtirishlarni, texnologik yangi va sezilarli darajada takomillashtirilgan xizmatlarni, xizmatlar ishlab chiqarilishi (etkazib berilishi) bo'yicha yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan usullarni ishlab chiqish va joriy etish bilan bog'liq faoliyati nazarda tutiladi. Texnologik innovatsiyalar yuridik shaxs tomonidan birinchi marotaba ishlab chiqilayotgan

mahsulotlar, jarayonlar, xizmatlar va usullar shaklida (agar ular boshqa yuridik shaxslar tomonidan qo'llanilayotgan bo'lsa ham) bo'lishi mumkin.

Texnologik innovatsiyalarning ikkita turi mavjud. Bular: mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar va jarayonlar bo'yicha innovatsiyalar.

Sanoat ishlab chiqarishida mahsulot bo'yicha innovatsiyalar texnologik yangi va takomillashtirilgan mahsulotlarni tayyorlash va joriy etishni o'z ichiga oladi. Texnologik yangi mahsulot – texnologik xususiyatlari (funksional belgilari, konstruktiv yo'l bilan bajarilishi, qo'shimcha operatsiyalari, shuningdek qo'llaniladigan tarkibiy qismlar va materiallar tarkibi) yoki qo'llanilish maqsadi prinsipial jihatdan yangi yoki yuridik shaxs tomonidan ilgari ishlab chiqarilgan shunga o'xshash mahsulotdan sezilarli darajada farq qiluvchi mahsulotdir. Bunday innovatsiyalar prinsipial jihatdan yangi texnologiyalarga yoki mavjud texnologiyalardan, tadqiqot va ishlanmalar natijalaridan foydalanishga asoslangan bo'lishi mumkin.

Texnologik jihatdan takomillashtirilgan mahsulot – bu yuqoriroq samarali tarkibiy qismlar va materiallardan foydalanish, bir yoki undan ortiq texnik tarkibiy qismlarini qisman o'zgartirish (kompleks mahsulotlarda) yo'li bilan ishlab chiqarilishining sifat bo'yicha xususiyatlari yaxshilanadigan va iqtisodiy samaradorligi oshadigan mahsulotdir.

Mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar Sizning tashkilotingiz uchun yangi bo'lishi kerak. Ular bozor uchun yangi bo'lishi shart emas. Innovatsion mahsulotlar Sizning tashkilotingiz yoki boshqa tashkilot tomonidan tayyorlanganining ahamiyati yo'q.

Jarayonlar bo'yicha innovatsiyalar texnologik yangi yoki texnologik jihatdan sezilarli darajada takomillashtirilgan ishlab chiqarish, shuningdek mahsulotlarini etkazib berish usullarini ishlab chiqish yoki joriy etishni o'z ichiga oladi. Bu turdag'i innovatsiyalar yangi ishlab chiqarish asbob-uskunalaridan, ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishning yangi usullaridan foydalanishga yoki ularni birqalikda qo'llashga, shuningdek tadqiqot va ishlanmalar natijalaridan foydalanishga asoslangan bo'lishi mumkin. Bunday innovatsiyalar, odatda, tashkilotda ilgari mavjud bo'lgan mahsulotlarini ishlab chiqarish yoki etkazib berishning samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lishi, shuningdek odatdagi usullar yordamida amalga oshirish imkonini bo'lmaydigan texnologik jihatdan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki etkazib berish uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin.

Jarayonlar bo'yicha innovatsiyalar Sizning tashkilotingiz uchun yangi bo'lishi kerak. Sizning tashkilotingiz bu innovatsiyalarni birinchi bo'lib joriy qilgan bo'lishi muhim emas. Jarayonlar bo'yicha innovatsiyalar Sizning tashkilotingiz yoki boshqa tashkilot tomonidan ishlab chiqilganligining ahamiyati yo'q.

Texnologik innovatsiyalarga quyidagilar kirmaydi:

- mahsulotdagi estetik (rangida, bezatilishida) o'zgartirishlar;
- mahsulotning konstruktiv vazifalarini o'zgartirmaydigan, uning yoki tarkibiy qismi hisoblangan materiallar va komponentlarning ko'rsatkichlariga, xususiyatlariga, narxiga etarlicha sezilarli ta'sir ko'rsatmaydigan texnik va tashqi ko'rinishda sezilarsiz darajadagi o'zgartirishlar;
- vaqtinchalik talabni va tashkilotning daromadlarini ta'minlash maqsadida tashkilot tomonidan ilgari ishlab chiqarilmagan, ammo mahsulotlar, ishlar, xizmatlar bozorida etarlicha ma'lum bo'lgan mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqarishini yo'lga qo'yish (boshqa ixtisoslik bo'yicha bo'lishi ham mumkin) evaziga ularning turlarini ko'paytirish. Masalan, mashinasozlik zavodida mavsumiy talabdan foydalangan holda yozgi davrda boshqa ixtisoslik bo'yicha mahsulot, ya'ni mix ishlab chiqarilishi;
- ma'lum modeldagi qo'shimcha dastgohlarni o'rnatish, hatto ularni shu modelning oxirgi modifikatsiyaga almashtirish evazi ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish;
- to'laligicha boshqa tashkilot tomonidan ishlab chiqarilgan va tayyorlangan innovatsion tovarlar, ishlar, xizmatlarni sotish;
- tashkiliy va boshqarish bo'yicha o'zgartirishlar.

Xizmatlar sohasida faoliyat yurituvchi tashkilotlar uchun xususiyatlari, foydalanish usullari prinsipial jihatdan yangi yoki texnologik jihatdan takomillashtirilgan (sifatli) xizmatlar – texnologik innovatsiyalar hisoblanadi. Xizmatlar ishlab chiqarish va etkazib berishning sezilarli

darajada takomillashtirilgan usullaridan foydalanish ham texnologik innovatsiyalar hisoblanadi. Bu mavjud ishlab chiqarish usullaridan foydalangan holda yoki mavjud xizmatlarni ishlab chiqarish yoki etkazib berishning samaradorligini oshirgan holda, ishlab chiqarila yoki etkazib berila olinmaydigan yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan xizmatlarni ishlab chiqarish yoki etkazib berish bilan bog‘liq bo‘lgan asbob-uskunalardagi yoki ishlab chiqarishni tashkil qilishidagi o‘zgarishlarni qamrab olishi mumkin.

3.2 Texnologik bosqichlarning evolyusiyasi.

Ilmiy-tadkiqot ishlarini (**ITI**) joriy qilishning ilgarigi mavjud tizimi har bir korxona uchun keyingi moliya yiliga markazlashgan (vazirlilik, tarmok) fondlardan ajratiladigan va tasdiklanadigan, fan va texnikani rivojlantirish yagona fondi hisobidan mablag‘ bilan ta’minlanadigan yangi texnika va ilgor texnologiyalarni joriy etish rejasini bo‘lishni ko‘zda tutardi. Mablag‘ bilan ta’minlashning boshka manbai korxonalar oladigan foyda hisoblanar, lekin bu holda ilmiy-tadkiqot ishlanmalari va tajriba konstrukturlik ishlari bilan bog‘liq xarajatlar mahsulot tannarxiga kiritilardi. Ishlab chiqariladigan mahsulot ro‘yxati Davlat rejalshtirish komiteti yoki boshqa markaziy organlar (sobiq ittifoq yoki respublika) tomonidan belgilanardi. Bir so‘z bilan aytganda, davlat joriy etiladigan ITI va tajriba konstrukturlik (TK) ishlari ruyxatini uzi belgilar, ularni joriy etish uchun mablag‘ ajratar va bu ishlarni amalga oshirish uchun javob berar edi. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida davlat bunday ishlar ruyxatini cheklangan tarzda belgilaydi. Kolgan barcha maxsulot talabga kura ishlab chikariladi. SHu narsa ravshanki, bunday sharoitda maxsulotning yangi turlarini izlash mexanizmi, bu turlar buyicha ishlab chikarishni rejallattirish va uni boshkarish masalasi xam uzgaradi.

3.3 Innovatsiyalarning rivojlanish modellari.

Bozor munosabatlarining shakllanishida infratuzilmalar asosiy rol o‘ynaydi. Infratuzilma muassasalarining rivoji esa ishlab chiqaruvchi kuchlarining joylashuvi, ular salohiyati va aholining tadbirdorlik faolligi bilan belgilanadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida infratuzilma turli xil vazifalarni bajaruvchi tarkibiy qismlar, unsurlardan iborat tizimni namoyon etadi. SHunga mos holda, infratuzilmaning tarkibiy qismlarini belgilab olish, ularning har birining ahamiyatini o‘rganish, iqtisodiy tabiatini o‘chib berish muhim hisoblanadi.

Mamlakatimizni rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan Harakatlar Strategiyasida eng muhim ustuvor vazifalardan biri – bu mamlakatimizni modernizatsiya qilish va aholi bandligini oshirishning muhim omili sifatida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirishdan iborat ekanligini belgilab berdilar.

Mazkur ustuvor vazifaga alohida etibor qaratishning bir qator sabablari mayjud. Jumladan:

Birinchidan, infratuzilmani rivojlantirish yangi korxonalarni joylashtirish va butun iqtisodiyotni taraqqiy ettirish uchun zarur qulay shart-sharoitlar yaratadi, mamlakatimizning boy mineral-xomashyo resurslarini o‘zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ikkinchidan, ishlab chiqarish infratuzilmasi, avvalambor, avtomobil va temir yo‘llarning rivojlangan tizimi, ularning samarali faoliyati ishlab chiqarishdagi umumiy xarajatlarni kamaytirishning muhim sharti va omilidir. Bu esa, o‘z navbatida, ishlab chiqarilayotgan mahsulot va butun iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini oshiradi.

Uchinchidan, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, aholini toza ichimlik suvi, energiya bilan ta’minlash, ijtimoiy soha ob‘ektlarini barpo etish, pirovard natijada aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, infratuzilmani rivojlantirish ko‘p mehnat talab qiladigan keng ko‘lamli soha hisoblanadi. Bu yangi ish o‘rinlarini tashkil etish, aholining, ayniqsa, yoshlarning ish bilan bandligini ta’minlash, odamlarning daromadi va farovonligini oshirish imkonini beradi.

Bundan ko‘rinadiki, mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, iqtisodiyotning real sektorini yanada rivojlantirish ko‘p jihatdan xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning ishlab chiqarish infratuzilmasi bilan ta’minlanganlik darajasiga bog‘liq.

Rivojlantirishni ta'minlash, shu asosda iqtisodiyotni izchil va barqaror yuksaltirish uchun qulay shart-sharoit yaratish maqsadida so'nggi yillarda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida maxsus dasturlar qabul qilindi va uning bajarilishi keskin nazoratga olindi.

3.4 YAngilikni yaratilishi va uning xarakteristikasi.

O'zbekiston Respublikasi qonuni "Innovatsiyalar va innovatsiya faoliyati" to'g'risida umumiy qoidalar:

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi innovatsiyalarni ishlab chiqish va yaratish hamda innovatsiya faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Innovatsiyalar va innovatsiya faoliyati to'g'risida qonun hujjatlari

Innovatsiyalar va innovatsiya faoliyati to'g'risidagi qonun xujjatlari ushu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iborat.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida O'zbekiston Respublikasining innovatsiyalar va innovatsiya faoliyati to'g'risidagi qonunchiligidan ko'zda tutilgandan boshqa qoidalar belgilangan hollarda xalqaro shartnomalarning qoidalari qo'llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

innovatsiyalar – yangi yoki avvalgi holatiga nisbatan takomillashtirilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat va b.) turi, ishlab chikarish jarayoni, biznesni yuritishda tashkiliy uslub, ishchi o'rirlarni tashkil qilish va (yoki) boshqa foydali natijaga erishish shaklida mujassamlashgan ilmiy-tadqiqot va/yoki tajriba-konstrukturlik va (yoki) texnologik ishlarning natijasi;

innovatsiya faoliyati – ilmiy-tadqiqot va (yoki) tajriba-konstrukturlik va/yoki texnologik ishlarni yaratish, ulardan foydalanish va ularning natijalarini tijoratlashtirish, shuningdek innovatsiya infratuzilmasini yaratish va uning faoliyatini ta'minlashga yo'naltirilgan ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy harakatlar majmuidan iborat faoliyat;

innovatsiya loyihasi – innovatsiyalarni yaratish, shu jumladan, ularni tijoratlashtirishga yo'naltirilgan tadbirlar majmuasi;

innovatsiya dasturi – innovatsiya mahsulotini ishlab chiqarish va samarali o'zlashtirishni ta'minlaydigan, ularni amalga oshirish muddatlari, resurslari, ijrochilari, moliyalashtirish hajmlari va manbalari bo'yicha muvofiqlashtirilgan, innovatsiya loyihalari majmuasii;

innovatsiya tavakkalchiligi – tashkilot tomonidan ishlab chiqarishga sarflangan mablag'ni, innovatsiyalarni bozorda kutilayotgan talabga ega bo'limganligi va (yoki) kutilayotgan samarani keltirmaganligi sababli paydo bo'ladigan yo'qotishlar ehtimoli;

innovatsiya ilmiy-texnika ishi – yangi yoki takomillashtirilgan materiallar, mexanizmlar, mahsulotlar, texnologiyalar, tizimlar va xizmatlarni rejalashtirish yoki loyihalashtirishga yo'naltirilgan ilmiy- tadqiqot va/yoki tajriba-konstrukturlik va/yoki texnologik ishlarni natijalarini ishlab chiqarishda qo'llash yoki tijorat maqsadlarida foydalanish boshlangunga qadar bo'lgan faoliyat;

innovatsiya markazlari – innovatsiyalarni tezkor ilgari surish va istiqbolli texnologiyalarni o'zlashtirish maqsadida ilmiy markazlar va/yoki ilmiy-tadqiqot va oliy o'quv muassasalari negizida, hamda idoralar va joylardagi davlat idoralari organlari qoshida, sanoat korxonalari va/yoki moliyaviy institutlar (investorlar)ning ishtirokida tuziladigan tashkilotlar;

venchur fondi – tavakkalchilik darajasi yuqori, oldindan daromad yoki ziyon ko'rishi aniq ma'lum bo'limgan innovatsiya loyihalari va dasturlarini moliyalashtirish va amalga oshirish, shuningdek innovatsiyalarni joriy qiluvchi tashkilotlarni moliyaviy, konsalting, injiniring va huquqiy qo'llab-quvvatlovchi jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan tashkil etiladigan maxsus moliyaviy fond;

innovatsiya fondi – qonun hujjatlarida ko'rsatilgan shaklda, ilmiy-tadqiqot va/yoki tajriba-konstrukturlik va/yoki texnologik ishlarni, innovatsiya loyihalari va dasturlarini

moliyalashtirish uchun davlat organlari va/yoki xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan, tuziladigan moliyaviy fond;

innovatsiya faoliyati natijasini tijoratlashtirish – ilmiy-tadqiqot va/yoki tajriba-konstrukturlik va/yoki texnologik ishlar natijalarini fuqarolik muomalasiga jalg etish bo‘yicha faoliyat;

ilmiy-tadqiqot ishlari – yangi bilimlarni egallash va/yoki ularni to‘plash va qo‘llashga qaratilgan har qanday ijodiy va tizimli faoliyat;

ilmiy va/yoki ilmiy-texnik axborot – ilmiy bilimlar, shu jumladan, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstrukturlik, texnologik, innovatsiya va boshqa ishlar to‘g‘risida, ilmiy, ilmiy-tadqiqot va/yoki innovatsiya faoliyati natijalarining har qanday moddiy, elektron va boshqa axborot tashuvchilarida qayd etilgan hisobotlari va boshqa hujjatlarning yig‘indisi;

tajriba-konstrukturlik va texnologik ishlar – texnologik, muhandislik, iqtisodiy, ijtimoiy, gumanitar va boshqa muammolarini hal qilish uchun yangi ilmiy bilimlarni qo‘llashga, fan, texnika va ishlab chiqarishning faoliyat ko‘rsatishini ta’minalashga yo‘naltirilgan faoliyat;

texnologik park (texnopark) – ilmiy, loyihalash-konstrukturlik tashkilotlari, ta’lim muassasalari, ishlab chiqarish tashkilotlari yoki ularning ilmiy-texnika va innovatsiya sohasida tadbirkorlikni rivojlanishi uchun qulay bo‘lgan sharoitlarning shakllanishini amalga oshirayotgan bo‘linmalarining birlashmasi ko‘rinishidagi fan, ta’lim va ishlab chiqarishning hududiy integratsiyasi sifatidagi innovatsion infratuzilma sub’ekti;

intellektual mulk ob’ektlari va texnologiyalar transferi (uzatish va ilgari surish) – intellektual mulk ob’ektlari va texnologiyalarini va/yoki boshqa innovatsiya mahsulotlariini xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga sinash va/yoki ularni ishlab chiqarishni o‘zlashtirish va/yoki sotish uchun uzatish jarayoni. va boshqalar.

4-Mavzu. Innovatsiyalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash zarurati

4.1 Innovatsiyalarni boshqarish.

4.2 Innovatsiyalarni shakllantirish va boshqarishda davlatning ishtiroki.

4.4 Innovatsion loyihalarni tashkil etishda davlatning ishtiroki.

4.1 Innovatsiyalarni boshqarish.

Maykl Porter nazariyasiga qaraganda neft gaz sohasni rivojlanishi va dunyo miqyosida iqtisodiy raqobat ustunligiga erishish innovatsiyalarini ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lib, sohadagi texnologiyalarini innovatsion darajada yangilanishini talab etadi. Bu borada ushbu texnologiyalarini qo‘llanilishi ularni klassterlar yuzasidan boshqaruvini amalga oshirish yo‘anlishini ko‘rishimizni talab etadi. Bunda neft gaz qazib chiqarish texnologiyasga tubdan innovatsion o‘zgartirishlarni kiritish natijasida va ushbu texnologiyalarini boshqarish yo‘li bilan sohanining rivojlanishida yuqori samaasiga erishish imkoniyatini yaratadi.

Bu klasster majmuasni boshqarish innovatsion mexanizmini harakatga keltirishni talab etadi. Ushbu maqsadga muvofiq innovatsion boshqarishni amalga oshirish strategiyasini tanlash lozim.

Umumiy holda kompaniyaning innovatsion jarayonini amaga oshirish strategiyasi ya’ni Respublikamiz xalq xo‘jaligini tarmoqlarini yonilg‘i moylash mahsulotlari bilan to‘liq va barqaror ta’minalash borasidagi vazifalarimiz quyidagilardan iborat:

1. YAngi neft va gaz konlarini o‘zlashtirish;
2. Mayjud konlardan samaraliroq foydalanish;
3. Ishlab chiqarishda ilg‘or texnika va texnologiyalardan foydalaish orqali yuqoriroq samaradorlikka erishish;
4. Ichki va tashqi bozorlarda kompaniya raqobatbardoshligini ta’minalash.

Innovatsion iqtisodiyotni shakllanishiga asoslangan holda ilmiy texnik va iqtisodiy faoliyatning takomillashtirishga yo‘naltirish lozim. Xususan, mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonini innovatsion yo‘lga qo‘yish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar ishlab chiqarilishini

yanada rivojlantirish, zamon talabiga javob bermay qo‘ygan texnologiyalarni olib tashlashni taqazo etadi. Bunda:

- Innovatsion faoliyatni amaga oshirish operatsion rejasi va dasturlarini ishlab chiqish;
- YAngi turdagি mahsulot va texnologiyalarni yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish jarayonini kuzatib borish;
- YAngi turdagи mahsulotni yaratish va ishlab chiqarish loyihalarini muhokama qilish;
- Tashkilot miqyosida umumiyl innovatsion siyosatni yurgizilishini ta’minlash nazarda tutiladi.

Innovatsion strategiya kompaniyaning umumiyl strategiyasning bir qismi bo‘lib, ishlab chiqarish va boshqaruvni yangi sifat bilan ta’minlashga, kompaniyaning ustuvor istiqbolini aniqlashga qaratilgan maqsadli faoliyatidir.

Innovatsion strategiyani mazmuni uning xarakteri kompaniyaning innovatsion faoliyatining o‘ziga xosligi va yagona tashkiliy staretgiyani asosiy elementlari bilan o‘zaro uyg‘unligida namoyon bo‘ladi.

4.2 Innovatsiyalarni shakllantirish va boshqarishda davlatning ishtiroki.

Innovatsiya ilmiy-texnika dasturlarini shakllantirish va amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2007 yil 28 avgustda 1706-sod bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 7 avgustdagи PQ-436-sodli «Fan va texnologiyalar rivojlanishining muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2006 yil, 31-32-sod, 311-modda) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo‘mitasi, Moliya vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi va Fanlar akademiyasi qaror qiladilar:

1. «Innovatsiya ilmiy-texnika dasturlarini shakllantirish va amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizom» ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro‘yxatiga olingan kundan boshlab o‘n kun o‘tgach kuchga kiradi.

Umumiy qoidalar

1. Innovatsiya ilmiy-texnika dasturlari fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari asosida yangi texnologiyalarni amaliyatda keng qo‘llash, mamlakat ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishining dolzarb masalalarini hal etish, mavjud ilmiy-texnologik salohiyatdan samarali foydalanishga yo‘naltirilgan innovatsiya faoliyatini, amaliy, ilmiy-texnik, tajriba-konstrukturlik, texnologik va boshqa turdosh ishlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni ko‘zda tutadi.

2. Fanlar akademiyasi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi hamda Xalq ta’limi vazirliklari (keyingi o‘rinlarda «vazirliklar») tegishli sohalardagi mavjud ilmiy-texnologik muammolardan kelib chiqib, vazirliklarning innovatsiya ilmiy-texnika dasturlarini (keyingi o‘rinlarda «vazirliklarning dasturlari») shakllantiradir.

3. Iqtisodiyot tarmoqlarining yirik ilmiy-texnologik muammolarini hal etishga qaratilgan innovatsiya ilmiy-texnika dasturi (keyingi o‘rinlarda «Dastur») Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish Qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda «Qo‘mita») tomonidan shakllantiriladi.

4. Vazirliklarning dasturlarini va Dasturni moliyalashtirish Innovatsiya fan-texnika faoliyatini moliyalashtirish jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda «Jamg‘arma»)ga davlat byudjetining «Fan» 202 bo‘limi bo‘yicha ajratiladigan mablag‘lari va innovatsiya faoliyatidan manfaatdor xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning mablag‘lari hisobidan hissadorlik asosida amalga oshiriladi.

5. Byudjet mablag‘larining Dasturlar bo‘yicha moliyaviy taqsimoti Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda Qo‘mita tomonidan tasdiqlanadigan Jamg‘armaning xarajatlari va daromadlari smetasida belgilanadi.

6. Vazirliklar, Qo‘mita va innovatsiya ilmiy-texnika loyihalarini hissadorlik asosida moliyalashtirishda ishtirok etuvchi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar Dasturlarning buyurtmachilarini hisoblanadi.

Innovatsion faoliyatni rivojlantirish va samarali boshqarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 noyabrdagi qarori bilan Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etildi va uning oldiga mamlakatimizda innovatsion jarayonlarni samarali yo‘lga qo‘yish, istiqbolli innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, innovator kadrlarni toppish va ularni qo‘llab-quvvatlash vazifalari qo‘yildi.

4.3 Innovatsion loyihalarni tashkil etishda davlatning ishtiroki.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, Innovatsion loyihalari va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida

(*O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008 y., 29-30-son, 280-modda; 2010 y., 1-2-son, 2-modda; 2011 y., 36-son, 366-modda; 2012 y., 8-9-son, 78-modda*)

Ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalar rivojlantirilishi hamda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash jarayonlariga tatbiq etishni rag‘batlantirish bo‘yicha amaliy mexanizmlar yaratish, fan va ishlab chiqarishning yanada mustahkam aloqasini ta‘minlash maqsadida, shuningdek, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda real iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari o‘rtasida uzviy hamkorlik aloqalarini o‘rnatishda innovatsion g‘oyalar va loyihalari Respublika yarmarkasining ahamiyatini hisobga olgan holda:

1. SHunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalari Respublika yarmarkasi har yili o‘tkaziladi.

Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalari Respublika yarmarkasining har yili o‘tkazilishini tashkil qilish Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo‘mitasi zimmalariga yuklansin.

2. O‘rta muddatli istiqbolda innovatsion mahsulotlar va texnologiyalarni rivojlantirish chora-tadbirlari kompleksi.

Tasdiqlangan chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish hamda Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalari Respublika yarmarkasini yuqori darajada o‘tkazish ishlarini muvofiqlashtirib borish uchun Muvofiqlashtiruvchi ishchi guruhi tuzilsin.

Muvofiqlashtiruvchi ishchi guruh O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo‘mitasi, Fanlar akademiyasi, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, manfaatdor vazirliklar va idoralar, xo‘jalik birlashmalari mazkur qaror bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar kompleksida nazarda tutilgan tadbirlarning belgilangan muddatlarda so‘zsiz bajarilishini ta‘minlasin.

4. Amaliy ilmiy ishlanmalar va innovatsion texnologiyalar ishlab chiqarishga keng tatbiq etilishini ta‘minlash uchun vazirliklar, idoralar, uyushmalar, kompaniyalar va boshqa xo‘jalik birlashmalari quyidagilarni:

xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning amortizatsion ajratmalari va sof foydasi, shuningdek buyurtmachilarining maqsadli tushumlari shakllantirish manbalaridan iborat bo‘lgan modernizatsiya va yangi texnologiyalar jamg‘armalarini;

tarmoq va korxonani innovatsion rivojlantirishga javobgar bo‘lgan tarkibiy bo‘linmalar, zarur hollarda esa — loyiha-konstrukturlik byurolarini tashkil etishda xo‘jalik boshqaruvi organlari hamda korxonalarga ko‘maklashsin.

5. Quyidagilar tashkil etilayotgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni innovatsion rivojlantirish tarkibiy bo‘linmalarining asosiy vazifalari etib belgilansin:

zamonaviy uskunalar va texnologiyalarning xalqaro va mahalliy ishlanmalarini o'rganish, shu asosda zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishning har yilgi va o'rta muddatli dasturlarini shakllantirish;

mahalliy amaliy ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarga buyurtmalar jamlamasini shakllantirish, shuningdek ularni joylashtirish;

amaliy ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar natijalarini korxona faoliyatini amaliyotiga tatbiq etish.

Mazkur tarkibiy tuzilmalar faoliyatiga tatbiq etilgan loyihalar va ishlanmalar soni, shuningdek ulardan olingan iqtisodiy samaraga qarab baho berilsin.

6. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi bilan birgalikda bir oy muddatda Xo'jalik boshqaruvi organlari va korxonalarining modernizatsiya va yangi texnologiyalar jamg'armasi to'g'risidagi **nizomni** belgilangan tartibda ishlab chiqsin va tasdiqlasini.

7. Belgilansinki, modernizatsiya va yangi texnologiyalar jamg'armasiga yo'naltiriladigan mablag'lar xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan ilmiy amaliy tadqiqotlarni, innovatsion loyihalarni, tajriba-konstrukturlik ishlanmalarini hamda ularni ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etishni moliyalashtirishda foydalaniladi.

8. 2014 yilning 1 yanvarigacha bo'lgan davrda o'quv va ilmiy-tadqiqot muassasalari hamda tashkilotlari, loyiha-konstrukturlik tashkilotlari xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha amalga oshiriladigan amaliy ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlarini bajarish qismida daromad solig'i, yagona soliq to'lovi, qo'shilgan qiymat solig'i va davlatning maqsadli jamg'armalariga majburiy to'lovlar (yagona ijtimoiy to'lovdan tashqari) to'lashdan ozod etilsin.

9. Ilmiy-tadqiqot muassasalari va tashkilotlarini qayta jihozlash va to'liq jihozlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan ro'yxatlar bo'yicha modernizatsiya qilish doirasida olib kelinadigan uskunalar bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruviga imlaridan tashqari) ozod etilsin.

5-Mavzu. Innovatsion tuzilmalarini boshqarish va uning funksiyalari

5.1 Innovatsiyaon tuzilmalar mohiyati va tuzilishi.

5.2 Innovatsiyaon tuzilmalarining o'ziga xos xususiyatlari.

5.3 Innovatsiyaon faoliyatni tashkil etishni ta'minlovchi omillar.

5.4 Moliya-sanoat guruxlarining boshqarish.

5.1 Innovatsiyaon tuzilmalar mohiyati va tuzilishi.

Ma'lumki, har qaysi mamlakat iqtisodiyotining rivoji ilmiy-texnika taraqqiyoti bilan chambarchas va uzviy bog'liq. Sababi, ishlab chiqarishga intellektual salohiyat mahsullari bo'lgan ilmiy hajmdor, yuqori samarali ishlanmalar, ilg'or innovatsion texnologiyalarni jadal tatbiq etmasdan turib, ichki va tashqi bozorda raqobatbardosh mahsulotlar tayyorlashning iloji yo'q. SHu boisdan respublikamizda ilmiy-texnikaviy salohiyatni rivojlantirish va uning yutuqlaridan oqilona foydalanish masalasiga taraqqiyotning "lokomotivi" sifatida qaraladi.

YArmakaning ochilish marosimida ta'kidlanganidek, Prezidentimiz tashabbusi bilan ilmiy muassasalar, tadqiqotchi-olimlar moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlanayotgani natijasida mamlakatimizning ilmiy salohiyati tobora yuksalib bormoqda. Uning yutuqlari ijtimoiy-iqtisodiy sohalar istiqboliga, shu bilan birga, tizimdagi dolzarb masalalar echimiga xizmat qilayapti.

Darhaqiqat, xo'jalik shartnomalari asosida tadqiqotlar bilan shug'ullanayotgan ilmiy muassasalarga soliq imtiyozlari berilgani, davlat korxonalarida innovatsiya markazlari va

jamg‘armalari tashkil etilgani ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini yanada jadallashtirib yubordi.

5.2 Innovatsiyaon tuzilmalarining o‘ziga xos xususiyatlari.

Hozirgi kunda innovatsion infratuzilma tarkibini belgilash, mazkur tizimga kiruvchi unsurlarni ko‘rsatib berishda ma’lum nomuvofiqliklar mavjud. Jumladan, bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan innovatsion infratuzilma aloqalarini o‘rnatishga va samarali yuritishga xizmat qiluvchi korxona, tashkilot va muassasalar majmui sifatida qarab, uni besh bo‘g‘inga ajratadilar:

1. ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi innovatsion infratuzilma (transport, aloqa, ombor xo‘jaligi, yo‘l xo‘jaligi, suv va energetika kabilar)
2. tovarlar va xizmatlar muomalasiga, ya’ni savdo-sotiq ishlariga xizmat qiluvchi innovatsion infratuzilma (birjalar, savdo uylari, auksionlar, tijoratchilik idoralari, reklama firmalari va agentliklari, davlatning savdo-sotiq va ularni nazorat etuvchi muassasalari)
3. moliya - kredit munosabatlarga xizmat qiluvchi innovatsion infratuzilma (tijorat banklari, o‘z-o‘zini kreditlash idoralari, sug‘urta kompaniyalari, moliya kompaniyalari, soliq undirish mahkamalari, har xil pul fondlari)
4. aholiga xizmat qiluvchi yoki sotsial innovatsion infratuzilma (uy-joy, kommunal va transport xizmati, maorif, madaniyat hamda sog‘liqni saqlash muassasalari, aholini ishga joylashtirish firmalari va idoralari)
5. axborot xizmati (iqtisodiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan har xil axborotlar – ma’lumotlar va xabarlarni to‘plash, umumlashtirish va sotish bilan shug‘ullanuvchi turli kompaniyalar, firmalar, maslahat idoralari, davlat muassasalari).5

5.3 Innovatsiyaon faoliyatni tashkil etishni ta’minlovchi omillar.

Ishlab chiqarish innovatsion infratuzilmasi tarkibiga transport, elektr energiyasi uzatish liniyalari, suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimi, aloqa, moddiy texnika ta’minoti, tayyorlov va ombor, maxsus xizmat va bo‘limlar, texnik ta’mirlash kabilar kiradi.

Ishlab chiqarish innovatsion infratuzilmasi tarkiban moddiy ne’matlar ishlab chiqaruvchi tarmoq va korxonalarga ishlab chiqarilgan mahsulotlarni iste’molchiga etkazishni tayyorlash, saqlash, o‘rash, qadoqlash yoki joylashtirish, tovar joylanadigan yoki o‘raladigan idishlar bilan ta’mirlash, tashish, ta’mirlash hamda sotish kabi xizmatlar ko‘rsatuvchi, ularning to‘xtovsiz va samarali faoliyat yuritishni ta’minlovchi tashkilot va korxonalar majmuini tashkil etadi.

5.4 Moliya-sanoat guruxlarining boshqarish.

Bugungi kunda mamlakatimizni, avvalo, iqtisodiyotimizni isloh etish, erkinlashtirish va modernizatsiya qilish, uning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan, har tomonlama asosli va chuqur o‘ylangan siyosat bizni inqirozlar va boshqa tahdidlarning salbiy ta’siridan himoya qiladigan kuchli to‘sinq, aytish mumkinki, mustahkam va ishonchli himoya vositasini yaratdi.

SHuni takror aytish joizki, integratsiyalashgan global iqtisodiy makonning uзвиy bir qismi sifatida O‘zbekiston jahon iqtisodiy inqirozining tobora kuchayib borayotgan salbiy oqibatlarini his etayotgani va bundan keyin ham his etishini biz o‘zimizga yaxshi tasavvur qilamiz. SHundan kelib chiqqan holda, biz iqtisodiyotimizdagi real ahvol va sharoitlarni hisobga olib, 2008 yilning ikkinchi yarmidayoq Inqirozga qarshi choralar dasturini ishlab chiqishga kirishgan edik.

Hozirgi kunda jahon iqtisodiy inqirozi oqibatlarining oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha Inqirozga qarshi choralar dasturi tasdiqlanib, tarmoqlar va hududlar bo‘yicha aniq ijrochilarga etkazildi. Bunda infratuzilma sohalarini rivojlantirishga alohida e’tibo qaratilgan. CHunki, infratuzilmani rivojlantirish orqali real sektor korxonalarini qo’llab-quvvatlash, ularning faoliyatini rivojlantirish hamda eksport salohiyatini oshirish imkonini beradi.

6-Mavzu. Innovatsion jarayonlarni moliyalashtirish

- 6.1 Innovatsiyalarni moliyalashning manbaalari.
- 6.2 Venchur fondlari tomonidan moliyalash.
- 6.3 Innovatsion jarayonlarni moliyalashning mexanizmlari.
- 6.4 Innovatsiyalarni moliyalashning xorijiy tajribalari.

6.1 Innovatsiyalarni moliyalashning manbaalari.

Innovatsiyalar va innovatsion faoliyatning moliyalashtirilishi jarayoniga bag‘ishlangan, uning bir qator moddalari orqali innovatsiyalar va innovatsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari Davlat byudjeti mablag‘lari, innovatsion faoliyat sub’ektlarining o‘z mablag‘i, xalqaro grantlar va tijorat banklari hamda xalqaro moliyaviy institutlarning imtiyozli-maqsadli kreditlari, shuningdek, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar bo‘lishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tilmoqda. Qayd etilayotganiga ko‘ra, tijorat banklari, investitsiya, lizing kompaniyalari, shu jumladan, xorijiy kompaniya va fondlari, innovatsion faoliyat sub’ektlarining modernizatsiyalash va yangi texnologiyalar fondlari, venchur fondlari va boshqa investorlar ham qonunchilikka muvofiq innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda ishtirot etishi mumkin.

6.2 Innovatsion jarayonlarni moliyalashning mexanizmlari.

Innovatsiya ilmiy-texnika dasturlarini shakllantirish va amalga oshirish tartibi to‘g‘risida NIZOMning “Dasturlarni amalga oshirish va innovatsiya loyihamonlari hissadorlik asosida moliyalashtirish” bo‘limida:

- Vazirliklar va Qo‘mita innovatsiya loyihamonlari amalga oshirish uchun ijrochi tashkilotlar bilan shartnomalar tuzadi.
- Ustama xarajatlar miqdori loyiha ajratilgan mablag‘ning 20 foizidan ortmasligi lozim.
- Hissador tashkilotning mablag‘i pul ko‘rinishida yoki loyihamonlari amalga oshirish uchun zarur qurilmalar, ishlab chiqarish bazasi, xom ashyo, energiya, mashina va mexanizmlar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.
- Innovatsiya loyihamonlari hamkorlikda moliyalashtirish shartlari Qo‘mita, vazirliklar va manfaatdor tomonlar o‘rtasida tuziladigan shartnomada ko‘rsatiladi.

(32-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo‘mitasi, Moliya vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasining 2008 yil 30 dekabrdagi 8-son, 12-son, 270-son, 65-son va 44/2-sonli (ro‘yxat raqami 1706-1, 12.02.2009 y.) qarori tahririda — O‘R QHT, 2009 y., 7-son, 74-modda)

6.3 Innovatsiyaon jarayonlarni moliyalash usullari va tamoyillari.

Iqtisodiy islohotlar chuqurlashib horijiy investitsiyalarni jalb qilishga talab va ehtiyojlarni ortib borishi hududlarda investitsiya siyosatini bozor munosabatlariiga mos ravishda amalga oshirish, ya’ni investitsiya jarayoni qatnashchilarining huquq va majburiyatlarini belgilab berish, hududlarda investorlar uchun to‘laqonli shart-sharoitlar yaratishni talab qiladi. Hududlar iqtisodiyotiga katta miqdorda horijiy investitsiyalarning jalb qilinishi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarini zamонавиy texnikalar bilan ta‘minlash, raqobatbardosh va jahon standartlariga mos sifatli tovarlar ishlab chiqarish, aholining bandlik darajasini oshirish, eng asosiysi hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlash imkonini beradi. Bunga erishish uchun hududlarda qulay investitsion muhitni yaratish kerak.

O‘zbekiston Respublikasida qulay investitsion muhitni yaratish, mamlakat iqtisodiyotini muhim sohalarini rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan uzoq va o‘rta muddatli davlat dasturlari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirishda investitsiyalarni jalg etish, avvalo, ichki manbalarni safarbar etish hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizasiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, transport kommunikasiyalarini yanada rivojlantirish va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini barpo etish hal qiluvchi ustuvor yo'naliishga aylandi.

Turkmanistondan O'zbekiston hududi orsali Xitoya o'tadigan gaz quvurini tortish ishlari yakunlandi. Bu o'z navbatida, mamlakatimizning tranzit imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Endigi vazifa xorijiy investitsiyalar uchun real investitsion muhitni yaratish, davlat hokimiyat organlarida byurokratiya va sansolarlikka chek qo'yish, xorijiy investitsiyalarni, birinchi navbatda, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalg etish ishlarini barcha choralar bilan kuchaytirish lozim.

Xorijiy investorlar O'zbekiston mintaqalariga sarmoya kiritish uchun mavjud bo'lgan imkoniyatlar, shuningdek, investorlar uchun yaratilgan har tomonlama keng, qulay shart-sharoit va kafolatlar bo'yicha zarur, kerakli ma'lumotga ega bo'lishlari muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekiston iqtisodiyotiga kirib kelayotgan xorijiy investitsiyalar oqimini yanada kengaytirish, xorijiy investorlarga aniq ma'lumotlar berish, mahalliy tadbirdorlarga xorijdagi potensial investorlar haqida ma'lumot berish ularga ko'maklashish maqsadida tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi huzurida "Xorijiy investitsiyalarni axborot bilan ta'minlash va ko'maklashish agentligi" tashkil etildi. Ana shu agentlikning faol faoliyat yuritishi mamlakatimiz hududlariga xorijiy investitsiyalar oqimining yanada oshishida ulkan ko'mak bo'ladi.

Innovatsiyalarni moliyalashning manbaalari. Innovatsiyalarni moliyalash turlari va shakllari. Venchur fondlari tomonidan moliyalash. Korporativ boshqaruvga asoslangan korxonalarda innovatsiyaon jarayonlarni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari. Innovatsion jarayonlarni moliyalashning mexanizmlari. Innovatsiyaon jarayonlarni moliyalash usullari va tamoyillari. Innovatsiyalarni moliyalashning xorijiy tajribalari.

7-Mavzu. Innovatsion loyihalar mazmuni va tasniflanishi

- 7.1 Innovatsiyaon loyihalarni mazmuni va tasniflari.
- 7.2 Innovatsiyaon loyihalarni tashkil etish tartibi va iqtisodiy o'lchamlari.
- 7.3 Innovatsiyaon loyihalar boshqarishing maqsadli va dasturli usullari.
- 7.4 Innovatsiyaon loyihalarni rejalashtirish.

7.1 Innovatsiyaon loyihalarni mazmuni va tasniflari.

Innovatsiya loyihasining asosiy maqsadlaridan biri - korxona yuqori sifatga ega bo'lgan kerakli miqdorda mahsulot ishlab chiqarish layoqatiga ega ekanligini raqobatchilarga isbotlashdan iborat.

"Innovatsion loyiha" tushunchasi bir qancha nuqtai nazaridan qaralishi mumkin:

- innovatsion maqsadlarga erishishga xizmat qiladigan tadbirlar yig'indisi sifatida;
- innovatsion faoliyatni amalga oshirish jarayoni sifatida;
- ushbu tadbirlarni asoslovchi va bayon qiluvchi hujjatlar paketi sifatida.

Ushbu uch jihatlar innovatsion loyihaning innovatsion faoliyatini tashkil qilish va maqsadli boshqarish shakllari sifatidagi ahamiyatini ko'rsatadi.

SHunday qilib, innovatsion loyiha - bu resurslar, muddatlar va ijrochilar bo'yicha o'zaro bir-birini asoslaydigan hamda o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan, ilm-fan va texnika taraqqiyotining ustuvor yo'naliishlarida muayyan maqsadlar (vazifalar)ga erishishga qaratilgan jarayonlarning murakkab tizimidir.

Innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun ularni moliyaviy asoslash va investitsiyalash muhim ahamiyatga ega. Bunda loyihaviy moliyalashtirish jarayonlari nuqtai nazaridan o'ziga xos xususiyatlarga ega innovatsion loyihalarni farqlash kerak:

- a) investitsion loyihalar, masalan, yangi sanoat ob'ektlari qurilishiga (energetika, transport, aloqa va h.k.) yirik kapital qo'yilmalar;
- b) ilmiy-texnik (innovatsion) - ilg'or texnologiyalar, yangiliklar, mahsulotlar va xizmatlar.

Ushbu ikki xil loyiha o'rtasida muhim farqlar mavjud:

1. Sanoat ob'ektlariga kapital qo'yilmalar haqidagi mavjud moliyaviy axborot, hattoki eng oddiy ilmiy-texnik loyihalarga qaraganda, ayniqsa, ularning erta bosqichlarida, ishonchliroqdir;
2. Innovatsion ilmiy-texnik loyihalar mavhumlikning yuqori darajasiga ega ekanligi bilan farq qilib, ular shunday afzallikka egaki, ular ishlanmaning erta bosqichidayoq katta bo'lmagan moliyaviy yo'qotishlar bilan to'xtatib qo'yilishi mumkin;
3. Ilmiy-texnik loyihalarda axborot investitsiyaviy loyihalarga qaraganda ko'proq cheklanganligi va mos emasligi bilan farq qiladi. Bu esa mustaqil ekspertlarning loyihalarini baholash bo'yicha fikrlarini korrelyasiyalashni nihoyatda qiyinlashtiradi;
4. Innovatsion loyihalar ko'p mezonliligi va yuqori darajali mavhumliligi bilangina farq qilmasdan, balki sifatli baholash bo'yicha ham farqlanadi.

7.2 Innovatsiyaon loyihalarni tashkil etish tartibi va iqtisodiy o'lchamlari.

Innovatsion loyihalar g'oyalar, fikrlar va texnik echimlarning ilmiy-texnik ahamiyati darajasi bo'yicha quyidagi tarzda tasniflanadi:

- 1) modernizatsion loyihalar, bunda namuna konstruksiyasi yoki asosiy texnologiya tub o'zgarmaydi;
- 2) novator loyihalar, bunda yangi buyum konstruksiysi turiga va elementlari xossalariiga qarab oldingisidan jiddiy farq qiladi (yangi xossalarni qo'shish, masalan, ushbu turdag'i buyumlarda ilgari qo'llanilmagan avtomatlashtirish vositalarini, lekin boshqa turdag'i buyumlarda qo'llangan kiritish);
- 3) ilgarilab boruvchi, bunda konstruksiya ilgarilab boruvchi echimlarga asoslanadi;
- 4) pioner loyihalar, ilgari mavjud bo'lmagan materiallar paydo bo'lganda;
- 5) oldingi va hattoki yangi funksiyalarni bajaradigan konstruksiyalar va texnologiyalar;

Loyihaning ahamiyat darajasi uning murakkabligi, davomiyligi, ijrochilar tarkibi, ko'lami, natijalarini ilgari surish xususiyati bilan belgilanadi, bu loyihani boshqarish mazmuniga ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Hal etilayotgan masalalar ko'lamlariga qarab innovatsion loyihalar quyidagilarga ajratiladi:

- 1) monoloyihalar - odatda, bitta tashkilot yoki hattoki bitta bo'linma tomonidan bajariladigan loyihalar. Ular bitta innovatsion maqsad qo'yilishi (aniq buyumni, texnologiyani yaratish) bilan farq qiladi, qat'iy vaqt va moliya doirasida amalga oshiriladi, unda loyiha muvofiqlashtiruvchisi yoki rahbari talab etiladi;
- 2) multiloyihalar - o'nlab monoloyihalarni birlashtiruvchi kompleks dasturlar ko'rinishida taqdim etiladigan, murakkab innovatsion maqsadga erishishga qaratilgan loyihalar, bunday maqsadga, masalan, ilmiy-texnik majmuani barpo etish, yirik texnologik muammoni hal qilish, harbiy-sanoat majmuasining bitta yoki bir guruh korxonalarini konversiyalash kabilar kiradi. Multiloyihani yaratish uchun muvofiqlashtiruvchi bo'lishi joiz;
- 3) megaloyihalar - bir qator multiloyihalarni va yuzlab monoloyihalarni birlashtiruvchi, o'zaro bitta maqsadlar shajarasi bilan

bog‘langan ko‘p maqsadli kompleks dasturlar bo‘lib, markazlashtirilgan moliyalashtirishni hamda muvofiqlashtirish markazidan boshqarilishini talab qiladi. Megaloyihalar asosida tarmoqni texnik qayta qurollantirish, mintaqaviy va federal konversiya hamda ekologiya muammolarini hal etish, mahalliy mahsulotlar va texnologiyalar raqobatbardoshligini oshirish kabi innovatsion maqsadlarga erishish mumkin.

Megaloyihalar shakllantirish va amalga oshirish bir qator tarmoqlar, mintaqalar, moliya-sanoat guruhlari va yirik korporatsiyalar, mamlakatlar guruhlari sa'y-harakatlarini birlashtirishni talab etishi mumkin.

Bajarilayotgan ishlar hajmlari va davomiyligiga qarab loyihalar:

- qisqa muddatli (1 yilgacha);
- o‘rta muddatli (5 yilgacha);
- uzoq muddatli (5 yildan ortiq) bo‘lishi mumkin.

Loyiha bosqichlari va pog‘onalari tarkibi uning tarmoq va funksional mansubligiga qarab belgilanadi.

"Loyiha" tushunchasi bilan bir qatorda, "innovatsion dastur" degan tushuncha ham mavjud. Bu tushunchalar o‘zaro chambarchas bog‘langan. Dastur - bu loyiha shakllaridan biri, dasturlash esa (dasturni shakllantirish) - loyihalar hayot sikli bosqichlaridan biri bo‘lsa-da, ularning xususiyatlari anchagini farqlanadi, dastur qo‘srimcha qator yangi xususiyatlarni orttiradi.

Innovatsion dastur loyihalarning (multiloyiha va megaloyihalar) murakkab kombinatsiyasi bo‘lib, boshqaruv ob‘ekti sifatida alohida loyihadan yoki o‘zaro bir-biri bilan juda zaif bog‘langan, tashkilot yoki uning ijrochilari tomonidan bajariladigan loyihalardan juda kuchli farq qiladi. Dasturni faqat yirik tashkilotlar birlashmasi, masalan, FPG (moliyaviy sanot guruhlari), yirik korporatsiyalar konsorsiumi, mintaqalari yoki megapolis, federal organlar va h.k.lar shakllantirishi va amalga oshirishi mumkin. Innovatsion dasturlarni shakllantirish va amalga oshirishga ko‘plab misollar mavjud.

7.3 Innovatsiyaon loyihalar boshqarishing maqsadli va dasturli usullari.

Innovatsion loyihalarni ishlab chiqishda zamонави Innovatsion loyihalar, odatda, katta investitsiyalarni talab qilishini, ular esa doim ham bo‘lavermasligini hisobga olish zarur. SHuning uchun investitsiyalar haqidagi masala ancha qiyin hal etiladigan muammodir, chunki mazkur loyihaning zarurligini, foydalilagini va samaralilagini isbotlash kerak bo‘ladi. Bu holatda asosiysi moliyalashtirish manbaini tanlash, uning hajmini, vaqt bo‘yicha to‘lovlar darajasi va hokazodir. Bu holatda investor o‘ziga loyihaning mohiyatini tushuntirib berish, hamkorlik qanday afzallik berishini, va eng asosiysi, ular oladigan eng minimal va eng yuqori foya miqdorini namoyish qilish talab etiladi. Ushbu ko‘rsatkichlarning hammasini investorlarni kapital ajratishga ishontirish uchun tegishli tarzda rasmiylashtirish kerak.

Innovatsion loyiha etarlicha batafsил tuzilishi kerak, chunki bo‘lajak investor loyiha bilan tanishganda mo‘ljallanayotgan dastur haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lishi va uning maqsadlarini tushunishi lozim. Innovatsion loyihani qay darajada detallashtirish va uning tarkibi bo‘lajak dastur va u tegishli soha hajmlariga bog‘liq. Masalan, qandaydir mahsulotni ishlab chiqarish yoki innovatsion texnologiyani joriy etishni yo‘lga qo‘yish ko‘zda tutilayotgan bo‘lsa, juda batafsил reja ishlab chiqilishi lozim, uning qanchalik batafsilligi innovatsion dasturning yakuniy mahsuloti murakkabligiga va mazkur mahsulot bozorining murakkabligiga bog‘liq. Innovatsion loyihaning tarkibi, shuningdek, taxminlanayotgan sotuv bozori ko‘lamiga, raqobatchilarining bor-yo‘qligiga va dastur natijalaridan foydalanish istiqbollariga bog‘liq. Innovatsion loyihaning asosiy bo‘limlari quyidagilar (variant):

1. Umumiy obzor (taklif etilayotgan innovatsion loyihaning maqsadi va mohiyati, taklif etilayotgan innovatsiyaning turi, loyihani amalga oshirishdan kutilayotgan haqiqiy foyda hamda loyihani amalga oshirishga sarflanadigan xarajatlar miqdori va turlari).

2. Tovarlar yoki xizmatlar tavsifi (taklif etilayotgan tovarlar va xizmatlar bayoni, ulardan foydalanish sohasi, yangiligi va patent bilan himoyalanganligi, dizaynning o‘ziga xosligi, tovarlar va xizmatlarning asosiy texnik-iqtisodiy va iste’mol tavsiflari, ularning rasmdagi tasviri, tovarlar va xizmatlar afzalliklari, sertifikatlash va h.k.).

3. Tovarlar va xizmatlarni sotish bozorlari (sotuv bozori turi, istiqbolli bozorlar, ularning joylashuvi va tavsifi, bu bozorlarda firmanın bashoratlanayotgan ulushlari, salohiyatlilik iste’molchilar tavsifi, yangi tovarlar va xizmatlarga talabni belgilovchi omillar, sotuvlarning salohiyatlilik hajmlari va hokazolar).

4. Tovarlar va xizmatlar raqobatbardoshligi (raqobatchi firmalarning qisqacha tavsifi, yangi tovar yoki xizmatning raqobatchi firmadagi o‘xshash tovar yoki xizmatga nisbatan raqobat afzalliklari, firma tovarlar va xizmatlar raqobatbardoshligini himoya qilish uchun qo’llaydigan raqobat strategiyalari va hokazolar).

5. Marketing rejasi (amalga oshirilayotgan loyihaning marketing maqsadlari va strategiyasi, loyihani amalga oshirish natijasida firma taklif qiladigan tovarlar va xizmatlarni ilgari surish hamda sotish strategiyasi, tovar yoki xizmatni sotishni rag‘batlantirish usullari, mijozlarga sotishdan keyin xizmat ko‘rsatishni tashkil qilish, taklif etiladigan tovarlar yoki xizmatlar haqida ijtimoiy fikrni shakllantirish, marketing byudjeti va h.k.).

6. Ishlab chiqarish rejasi (yangi tovarlar ishlab chiqarishni bozorga, ta’mintonchilarga, ishchi kuchiga, transport yo’llari va h.k.larga nisbatan joylashuvi, ishlab chiqarish maydonlari, quvvatlari va ularni kengaytirish imkoniyatlari, moddiy-texnik, insoniy va boshqa resurslar manbalari va ularga ehtiyoj, ulardan foydalanish imkon, ishlab chiqarishni kooperatsiyalash imkoniyatlari, ishlab chiqarish hajmlari va xarajatlari, qo’llanilayotgan texnologiyalar, ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va tovanni ishlab chiqarishni kengaytirish muddatlari, ishlab chiqarishning ekologikligi va h.k.).

7. Tashkiliy reja (tashkiliy tuzilma, xodimlarga, mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyoj, ularni mehnatga jalg qilish shakllari, kasblar bo‘yicha ish haqining zaruriy darajasi, mehnatni rag‘batlantirish tizimi, xodimlarni kasbiy tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi, loyihani amalga oshirishga boshchilik qilayotgan ma’muriy-boshqaruv xodimlar haqidagi ma’lumotlar va h.k.).

8. Loyihaning yuridik ta’mintoti (firmanın tashkil qilingan va ro‘yxatdan o‘tkazilgan sanasi, kim tomonidan va qaerda ro‘yxatga olingan, yuridik manzili, faoliyati turi va amalga oshirilayotgan operatsiyalar xarakteri, mulkchilik shakli, kapital mansubligi, firmanın nufuzli aksiyadorlari, psychilari, mazkur faoliyat turi uchun litsenziya, mazkur faoliyat turlari bo‘yicha boshqa tashkilotlar bilan shartnomalar va kelishuvlar).

9. Iqtisodiy tavakkalchilik. Sug‘urtalash (tavakkalliklar guruhlari ro‘yxati, ular manbalari va vujudga kelishi ehtimoliyuqori bo‘lgan davrlar, loyihaning iqtisodiy qaltisligiga baho berish, tavakkalliklardan sug‘urtalash dasturi, sug‘urta polislari nusxalari va h.k.).

10. Moliyalashtirish strategiyasi (loyihani amalga oshirish uchun moliyaviy mablag‘lar va ularning manbalari, kredit va aksiyadorlik kapitali ko‘rinishidagi mablag‘lar ulushi, kredit olish shartlari, moliyaviy mablag‘larni kiritishning iqtisodiy rentabelligi, loyihaga kiritilgan mablag‘larni qaytarish muddatlari, kutilmagan xarajatlarni qoplashga mo‘ljallangan moliyaviy mablag‘lar zaxirasi va h.k.);

11. Moliyaviy reja (loyihani amalga oshirish natijasidagi tovarlar va xizmatlarni sotish hajmlari, loyihani amalga oshirish uchun yillar bo'yicha kapital xarajatlari va ular qamraydigan xususiy mablag'lari, uzoq muddatli va qisqa muddatli kreditlar, tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish hamda sotish bo'yicha joriy daromadlar va xarajatlar balansi va h.k.).

Keyin ilovalar (dastlabki ma'lumotlar olingan hujjatlar, shartnomalar, litsenziyalar va h.k. nusxalarini) keladi va xulosa beriladi.

Tuzib chiqilgan innovatsion loyiha firma uchun innovatsion faoliyatning istiqbolli yo'naliшини aks ettirib va ko'rsatibgina qolmasdan, balki ushbu loyihaga pul ajratish kerakmiyo'qmi? bu loyiha qanday daromad keltiradi, hamma xarajatlar va unga ketgan kuch o'zini qachon oqlaydi? kabi savollarga ham javob berishi lozim.

SHunday qilib, innovatsion loyihani ishlab chiqish yo'naliшини tanlash va uni asoslash firmaning muhim strategik vazifalaridan biri bo'lib, u yoki bu yangilikni joriy etish qanday foyda keltirishini, shuningdek, firmaning samarali faoliyatining eng asosiy mezoni bo'lib nima xizmat qilishini isbotlab berishi lozim.

Innovatsion loyihalarni puxta hamda har tomonlama tahlil qilish va tanlash portfel tarkibini maqbullashtirish imkonini beradi. Echimni ishlab chiqish uchun yagona algoritm yo'q. Har bir alohida holda o'zining mezonlar guruhi ustunlik qilishi mumkin. SHundan kelib chiqib, innovatsion loyihalarni tahlil qilish tizimi qo'llanilayotgan usullarning ko'pligi bilan ajralib turadi: bu moliyaviy, investitsion va texnik-iqtisodiy tahlil usullari, matematik-statistik modellari, ekspert baholari tizimi, ilmiy-texnik daraja va mahsulot sifati tahlili usuli.

Ta'kidlash joizki, innovatsion loyihalarni tahlil qilish va tanlash turli texnik echimlar hamda moliyaviy-iqtisodiy omillarni hisobga olib yangilik hayotiy siklining barcha bosqichlarida xarajatlarni bashoratlash imkonini beradigan usullar va uslublar jamlanmasi asosida olib boriladi. Har qanday loyiha (dastur) quyidagi holatlardan ko'rinishi mumkin:

- a) texnik, bunda texnik-texnologik alternativlar; dasturning miqdori (ko'lami, hajmi); uni amalga oshirish muddatları, moliyaviy, mehnat va moddiy-texnik manbalarning ochiqligi va etarligi; dastur natijalarini amalga oshirish uchun bozor sig'imi; kutilmagan omillarni hisobga olgan holda dasturga sarf-xarajatlar; dastur bo'yicha ishlarni bajarish jadvali o'rganiladi va tahlil qilinadi;
- b) kommersiya, u marketingni, resurslar manbalari va ularni olish shartlari, dastur bo'yicha ishlarni bajarish shartlari va natijalarni amalga oshirishni tahlil qilishni ko'zda tutadi;
- v) ekologik, u loyihani tahil qilishda alohida o'ringa ega, chunki inson faoliyati bilan atrof-muhit o'rtaсидаги о'заро aloqalar etarlicha o'rganilmagan.

Innovatsion loyihani ekologik tahlil qilish vazifasi - atrof-muhitga etkazilishi mumkin bo'lgan zararni aniqlash va uni kamaytirish yoki oldini olish choralarini belgilash;

g) tashkiliy tahlil, uning maqsadi - loyihani amalga oshirish doirasida tashkiliy, huquqiy va ma'muriy vaziyatga baho berish hamda ushbu faoliyat sohasida zarur tavsiyalarni ishlab chiqish.

7.4 Innovatsiyaon loyihalarni rejorashtirish.

Innovatsion loyiha portfelini shakllantirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

1. Innovatsion loyihalarni dastlabki tanlash.

Bosqichning maqsadi - taqdim etilgan innovatsion loyihalarni umumlashtirilgan tahlildan o'tkazish va baholash. Ushbu bosqich quyidagi odimlarni o'z ichiga oladi:

- a) innovatsiyalarni amalga oshirishning tashkilotning asosiy muammolari echimini taklif eta oladigan asosiy yo'nalişlarini belgilash;

- b) ajratib olingen yo‘nalishlar bo‘yicha ekspertizalar olib borish uchun loyihalarni taqsimlash;
- v) ekspertizaning ishchi usulini ishlab chiqish;
- g) ekspert guruhlari shini tashkil qilish (NIO yoki marketing bo‘limi boshqa bo‘linmalardan mutaxassislarni jalb etgan holda);
- d) hisob-kitoblar va ekspertizalar natijalari bo‘yicha loyihalarga dastlabki baho berish;
- e) istiqboli yo‘q loyihalarni chiqarib tashlash.

Mazkur bosqichda loyiha bitta eng muhim mezon (masalan, iqtisodiy samaradorlik mezoni) bo‘yicha tanlanadi, bunda baholash parametri past bo‘lgan loyihalarni chiqarib tashlashdan iborat oddiy qoidadan foydalaniadi.

2. Ustuvor (boshlang‘ich) yo‘nalishlar bo‘yicha portfeli shakllantirish. Bosqichning maqsadi - loyihalarni ustuvorliklar bo‘yicha puxta tahlil qilish va taqsimlash. Bu erda quyidagi qadamlar ko‘zda tutiladi:

- a) innovatsion loyihalarni bir nechta mezonlar (3 - 5ta) bo‘yicha tahlil qilish;
- b) loyihalarning ustuvorlik darajasini aniqlash;
- v) loyihalarni ustuvorlik darajalari bo‘yicha taqsimlash.

Barcha loyihalar tegishli shkala bo‘yicha, masalan, "past", "o‘rtadan past", "o‘rtadan yuqori", "yuqori" baho bilan baholanadi.

"O‘rtadan yuqori" yoki "yuqori" baho olmagan loyihalar dastlabki tanlov bosqichidayoq chiqarib tashlanadi va rad etilgan deb hisoblanadi.

Qolgan loyihalar ustuvorlik darajasi (sinfi) bo‘yicha taqsimlanadi:

- a) ustuvor loyihalar - bu umumiy samarasi (natijalar/sarf-xarajatlar) 70 - 80 foizdan kam bo‘lmaydigan loyihalardir;
- b) ustuvor loyihalarning birinchi 20 - 30 foizi o‘ta ustuvor loyihalar hisoblanadi.

Loyihalarni ustuvorlik bo‘yicha ranjirovkalash resurslarni loyihalar o‘rtasida taqsimlash uchun kerak.

3. Moliyaviy va boshqa resurslarni innovatsiyalar portfeli ichida taqsimlash.

Bunda "xarajatlar - samaradorlik" sxemasiga asoslangan qaror qabul qilish qoidasidan foydalaniadi: birinchi navbatda, naqd pul mablag‘lari iqtisodiy samaradorligi maksimal darajaga (ustuvorlik darajasiga) ega bo‘lgan loyihaga ajratiladi.

Jahon amaliyotida "xarajatlar - samaradorlik"ni tahlil qilish barcha moliyani taqsimlash mexanizmlari uchun majburiy jarayondir. Buni shu bilan izohlash mumkinki, ushbu qoidani amaliy qo‘llash qanchalik oson bo‘lmisin, u quyidagilarga erishish imkonini beradigan loyihalar portfelini ta’minlaydi:

- berilgan cheklangan mablag‘lar doirasida maksimal mumkin bo‘lgan samaradorlik;
- talab etilgan natija va samaradorlik darajasiga eng minimal sarf-xarajatlar.

Korxonada shunday vaziyat yuzaga kelishi mumkinki, innovatsion loyihalarni amalga oshirishga innovatsion mablag‘larning etarli emasligi to‘sinqinlik qiladi.

Bunday holda qo‘sishma investorlarni hamda xususiy moliyaviy mablag‘larni izlab topish yoki mavjud innovatsion loyihalar portfelini o‘zgartirish zarur bo‘ladi.

4. Loyihalar portfelini aniqlashtirish - loyihalarning bir qismini o‘ziga jalb qilishi ko‘proq loyihalar foydasiga hamda investitsion mablag‘larning miqdoriga qarab kesib tashlash.

SHunday qilib, innovatsion ishlar portfelini tanlashga tajriba, bilim, sog‘lom idrok, iqtisodiy bilimlar, xodimlar imkoniyatlari va innovatsiyalarni joriy etish yutuqlari ehtimolligi kutilayotgan natijalar haqida yaxshi tasavvurga ega bo‘lish, ilmiy xodimlar va bo‘linmalar menejerlari faoliyatini rag‘batlantiruvchi omillarni tanlay olishni talab qiladigan ancha murakkab muammo sifatida qaralishi kerak.